IJTIMOIY BEGONALASHUVNING SABABLARI VA BARTARAF ETISH ZARURATI

Temirova Nilufar Erkinovna
Guliston davlat universiteti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi.

Annotatsiya: Begonalashuv falsafadan tortib iqtisodgacha, sotsiologiyadan psixologiyagacha bo‘lgan ko‘plab fanlarda keng va har xil ma’nolarda qo‘llaniladigan tushunchadir. Shu sababli, tushunchaning ta’rifida aniq chegara belgilanmagan bo‘lsa-da, fanlar o‘z qamrovedan kelib chiqib talqin qilishga harakat qiladi. Tushunchaning keng tarqalishining sabablaridan biri shundaki, u ijtimoiy va individual hayotda oson kuzatilishi mumkin bo‘lgan hodisalarni aniqlash uchun qo‘llaniladigan tushunchadir. Yana bir sabab shundaki, jarayon individual muammolardan tortib, zamonaviy hayotdan kelib chiqadigan ijtimoiy muammolargacha bo‘lgan juda ko‘p, turli hodisalarni o‘z ichiga oladi. An’anaviy qadriyatlardan chekinish, globallashuv va zamonaviy qadriyatlar, mexanizatsiyalashgan shaxsiy hayot va uyushgan jamiyatga o‘tish bilan bu boradagi ziddiyatlari odamlarning ongida ham, jamiyat darajasida ham muammoning ko‘lami kengayib borishiga olib keladi.

Kalit so‘zlar: begonalashuv, globallashuv, zamonaviy qadriyatlar, ellinizm, yashash muhiti, tabiiy muhit, “Ruh fenomenologiyasi”, “ijtimoiy chiqindi”.

Falsafiy muammolardan biri hisoblangan begonalashuv muammosi hech qachon o‘z dolzarbligini va ahamiyatini yo‘qotmagan. Ushbu muammoning dolzarbligi gnoseologik, ontologik, ijtimoiy-madaniy omillar tufayli yuksalib bormoqda. Begonalashuv muammosi qadimgi davrdan boshlab, antik davr, o‘rta asrlar davri, yangi davr va eng yangi davr olimlari tomonidan falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik, madaniyatshunoslik jihatidan o‘rganilib kelinmoqda.

Begonalashuv insoniy fazilatlardan va o‘z-o‘zini o‘ziga xoslikdan ajralish deb ta’riflanadi. Bu ta’rif inson o‘z hayotini shaxsning o‘ziga zid bo‘lgan turmush tarziga yoki inson tabiatiga to‘g‘ri kelmaydigan turmush tarziga aylantiradi, boshqacha qilib aytganda, inson bo‘lishdan ko‘ra hayoti ma’nosini yo‘qqa chiqaradi yoki bir yoqlama bo‘lib qolishiga torayishiga olib keladi.

Begonalashuv tushunchasining kelib chiqishi va falsafiy ildizlariga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak. Qadimgi yunon tilidagi “alloiosis” va lotinchada “alienatio” so‘zlari bilan ifodalangan begonalashuv tushunchasi “o‘zidan kechish, o‘z-o‘zidan tashqariga chiqish” ma’nosida qo‘llanilgan. Ellinizm davri yoki diniy ta’limotlarda u “Xudoga yaqinlashuv” ma’nosida qo‘llanilgan. Bu davrda begonalashuv ruhning o‘z quyi mavjudligidan (tanadan) ko‘tarilib, butun borliqning manbai bilan birlashuvi holatini ko‘rsatadi.

Gegel “Begonalik” tushunchasini falsafa tarixida ilk bor falsafiy tushunchasifatida qo‘llab, turli vaziyatlarda ko‘rib chiqib tushuntirib berishga harakat qiladi. Gegel asarlarida begonalashuv tushunchasini ikki jihatdan yondashib o‘rganishga harakat qiladi. Birinchisini ijtimoiy begonalashuv deb nom berib, o‘zaro ijtimoiy munosabatlar rivoji doirasida o‘rganishga harakat qilsa, ikkinchisini “Ruh fenomenologiyasi” asarida ruhning begonalashuvi sifatia ko‘rib chiqib, masalaning ma’naviy jihatini ochib berishga harakat qiladi.

Masalaning muhimligi bugungi falsafiy tadqiqotlar orqali oydinlashishi bilan birga, dunyodagi globallashuv jarayonlari va ommaviy madaniyatning tasirida bu kabi bilimlarga ehtiyoj ham ortib bormoqda. Har bir muammoning sabablari bo‘lgani kabi begonalashuvning turli va o‘ziga xos sabablari mavjud. Begonalashuv tushunchasini turli jihatlardan o‘rgangan mutaxassislar uning sabablari haqida bir qancha tadqiqotlar olib borgan va nazariyalarni shakllantirishgan. Ushbu sabablarni shartli ravishda quyidagi tartibda joylashtirib ayrimlarini tahliliy ko‘rib chiqishga harakat qilamiz. Bular oila, yashash muhiti, ta’lim tizimi, madaniyat, e’tiqodlar, milliylik hususiyati, siyosiy tuzum, mavjud va ustuvor g‘oyalar va boshqalar. sifatida qayd etish mumkin

Har qanday shaxsning shakllanishida, oilaviy muhit dastlabki omil sifatida qaralar ekan ekan har jihatdan sog‘lom bo‘lishi farzandlarning kamolotida mihim o‘ringa ega bo‘ladi. Chunki bu omil shaxs shakllanishida asosiy va belgilovchi omil hisoblanadi. Bundan tashqari, insonning ijtimoiylashuvi va shaxsiyati shakllanishiga oilaning toliqligi undagi a’zolarning o‘z rollarini to‘liq amalga oshirayotganliklari, undagi muammolarning bartaraf etilishi, o‘zaro munosabatdagi hurmat va vazifalarning teng, to‘g‘ri taqsimlanganligi kabilar oilaning tarbiyadagi muvaffaqiyatini belgilaydi. Demak oilaning o‘z ijtimoiy vazifalarini to‘liq bajara olmasligi shaxsiyatning g‘ayritabiiy rivojlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa o‘z navbatida begonalashuv sindromidir[8]. Dunyodagi jarayonlarni kuzata turib oilaviyu munosabatlartning buzilishi struktaraning darz ketishi bilan oiladan o‘z a’zolarining begonalashuv jarayonini ham ko‘payib borishiga guvoh bo‘lamiz. Ayrim statistik ma’lumotlarga ko‘ra, oilaning o‘zi institut sifatida xavf ostida qolayotgan bir paytda, tabiiylikning buzilishi sifatida qaralayotgan begonalashuvning kengayishini aniqroq his etish mumkin. Chunki oilaning strukturaviy buzilishi yoki yo‘q bo‘lishining o‘zi ham bu tabiiylikning buzilishidir.

Shaxs tug‘ilgandan boshlab o‘z oilasi va yashah muhiti ta’sirida muayyan munosabat va xatti-harakatlarni rivojlantiradi. Shaxs har doim o‘z yashash muhitidan kelib chiqib mo‘ljal oladi va rivojlanadi, agar uning yashash muhiti sokin, to‘q va ziyoli bo‘lsa u ham muhitning bir bo‘g‘ini bo‘lish uchun intiladi. Buning aksi bo‘lib yashash muhiti kurashlarga boy, nematlar notekis taqsimlangan, qoloqlik, zo‘ravonlik, johillik ustuvorlik kasb etsa jamiyat a’zosi shunga mutanosib bo‘lishga intiladi. “Yashash muhiti — bu insonni o‘rab turgan, u uchun ahamiyat kasb etib, ma’noga ega bo‘lgan hamma narsadir. Tabiiy muhit esa — yashash muhitining faqat bir qismidir xolos”[9]. Agar shaxsning oila muhiti yoki yashash muhiti jamiyatga mos kelmasa, shaxsning jamiyatga qo‘shila olmasligiga, e’tirof etilmasligiga ve oqibatda begonalashuviga olib keladi. Agar oilasidan va yashash muhitidan chiqib, ulardan begona bo‘lgan jamiyatga qo‘shilishi bilan oilasdan begonashuvni kuzatish mumkin bo‘ladi. Shu sababli, shaxsning oilasi va yashash muhiti begonalashishni his qilmaslik uchun ayniqsa muhimdir.

Shaxs shakllanishidagi yana bir omil sifatida ko‘riluvchi Ta’lim omilida ham begonalashuvga olib keladigan muammolar mavjud. Bular ta’limni qay tartibda va asosan qanday maqsadda olib

borilayotganligidan kelib chiqib belgilanadi. Shaxsning ijtimoiylashuv vositasi sifatida olib borilayotgan ta'lim jamiyatga ayni vaqtda kerakli bo'lgan bilimlar bilan o'z tarbiyalanuvchisini yetishtirishga va jamiyatni sevishga uning rivojiga hissa qo'shishga o'rgatishni maqsad qilgan bo'lsa, u shaxsning ijtimoiylashuga olib kelishi mumkin. Agar ta'lim shaxsning jamiyatga moslashishi uchun emas, jamiyatning qadim e'tiqodlari, an'analari va qadriyatlariga e'tibor bergan holatda olib borilsa-yu u bugungi zamon ruhiyati bilan omuxtalantirilmasa, bu ham begonalashuv uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Demak, begonalashuv - bu insonning tabiiy hayotidan tashqariga chiqishi sifatida qaralar ekan, unda o'z navbatida salbiy ta'sirlar orqali namoyon bo'luvchi jihatlarni baholashga zarurat seziladi. Shundan kelib chiqib bo'lsa, unga qarshi tadbirlarni amalga oshirish balki immunitet hosil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Begonalashuvning yuz berishi nafaqat shaxsning individual salbiylik kasb etishi bilan balki, shu bilan birga umumjamiyat manfaatlariga ham zid bo'lishi mumkin va u taraqqiyot uchun xissa qo'shmaydigan "ijtimoiy chiqindi"ga aylanib qolishiga ham olib kelishi mumkin. Bularning barchasi natijasida ishlab chiqarishdagi xodimlarning ishdan uzoqlshishiga, ishtiyoqi pasayishiga, ishdagi stressni kuchayishi va ishdan ketishni xohlashiga va bu kayfiyatni boshqalarga ham yuqtirishiga olib keladi. Shuning uchun shaxsning kerkali jamiyat a'zosi darajasida shakllanishi uchun yuqorida sanab o'tilgan omillarning faoliyati to'liq samarali amalga oshirilishiga e'tibor qaratish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Ляхова Я. Ю. Социально-философский аспект отчуждения профессиональной деятельности // Вестник Северного (Арктического) федерального университета. Сер.: Гуманитарные и социальные науки. – 2015. – № 1. – С. 67–71.
2. Смолева Е.О. Социальное отчуждение: анализ теоретических подходов // Вопросы территориального развития. – Вып. 4(34). – 2016. – С.1-14.
3. Alimasov V. Begonalashuv //Tafakkur . - 2020 -. №2.- B. 29.
4. Вильданова Г.Б., Вильданов Х.С., Муслимова Л.Ф. Феномен отчуждения и пути его преодоления // Вестник ЧелГУ. Философия, социология, культурология. – 2007. – № 17. – С.14-20.
5. Erkinovna T. N. THE INFLUENCE OF SOCIAL COMMUNICATIONS ON THE FORMATION OF ALIENATION AND LONELINESS. – 2023.
6. Erkinovna T. N. THE DEVELOPMENT OF SOCIOLOGY AND ITS ROLE IN THE LIFE OF SOCIETY //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 11. – С. 1320-1323.